



ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЙ И РАЗВИТИЯ THE JOURNAL OF RESEARCH AND DEVELOPMENT ТАДҚИҚОТ ВА ТАРАҚҚИЁТ ЖУРНАЛИ

ISSN: 3030-3281. Volume 1, Issue-6, (June) 2024
Journal homepage: <https://imfaktor.com/index.php/tjrd>

AXMEDOV Marifjon Mamirdjanovich
*O'zbekiston davlat konservatoriyasi
dotsenti v.b., p.f.n.*

PEDAGOG KOMPETENTLIGINI OSHIRISHDAGI AMALIY YONDASHUVLAR

ANNOTATSIYA

Har bir jamiyatning rivojlanishida ta'lim tizimining rivojlanishi eng muhim rol o'ynaydi. Shunday ekan, rivojlangan jamiyat qurish yo'lidagi pedagoglarning sa'y harakatlari ham ta'lim tizimining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Mazkur maqolada ta'lim jarayonini tashkil etishda o'qituvchi kompetentligi, shu jumladan, o'qituvchi kasbiy kompetentligini baholash ko'rsatkichlari, o'qituvchi o'zini tuta bilish, barcha munosabatlarida ta'lim oluvchi shaxsiga xos xatti-harakatlarni namoyon etishga yo'naltirish kabi masalalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: kompetentlik, o'qitish, mahorat, tayyorgarlik, shaxsiy sifatlar, irodaviy sifatlar, ma'naviy, axloqiy, hamkorlik, izlanish.

ANNOTATION

The development of the education system plays a vital role in the development of every society. Therefore, the efforts of teachers to build a developed society also serve to increase the efficiency of the education system. In this article, the teacher's competence in organizing the educational process includes indicators of the teacher's professional competence, the teacher's self-control, which directs the student's behavior in all its relations to the manifestation of the student's personality, are highlighted.

Key words: competence, preparation, skill, training, personal qualities, volitional qualities, spiritual, moral, cooperation, research.

Ilg'or pedagogik texnologiyalarning keng o'zlashtirilishi, bolalarning qobiliyatlari va imkoniyatlariga muvofiq ravishda ta'limga tabaqalashtirilgan yondashuvning joriy etilishi hamda ta'lim berishning ilg'or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o'quv-uslubiy majmualarning yaratilishi, ta'lim-tarbiya jarayonining didaktik jihatdan ta'minlanishi ta'limni boshqarish tizimini takomillashtirishga asos bo'lmoqda.

Bu o'z navbatida pedagoglar zimmasiga ta'lim, fan, texnika va texnologiyalarning jahon miqyosidagi yutuqlarini, yangiliklarni tatbiq etgan holda pedagogik jarayonni ilmiy asosda tashkil etish va uni loyihalash yo'nalishlari, shuningdek, boshqaruv faoliyatlarida vujudga kelayotgan noan'anaviy muammolarni ijobiy hal etish borasida turli yangi vazifalarni yuklaydi.

Ta'limni yangilash o'qitishni tashkil etishning noan'anaviy metod va shakllaridan, jumladan, integrativ metodlardan foydalanishni talab etadi. Integrativ metodlardan foydalanish natijasida bolalarda borliq olamni to'liq anglash xususiyati paydo bo'ladi, o'qitishda aynan faoliyatli yondashuv shakllanadiki, bu haqda juda ko'p gapirilmoqda [1].

O'qituvchining ta'lim muassasida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va uni boshqarish hamda jamoada qulay ta'limiy muhitni shakllantirishi uchun boshqaruvning turli xil zamonaviy usullarini bilishi va ularga asoslanishi, rivojlantiruvchi g'oyalar yo'nalishini aniqlay olishi, ilg'or tajribalarni va fan-texnika yutuqlarini muntazam o'rganib borishi, ularni o'z faoliyatida tatbiq etishi, boshqaruv jarayonida innovatsion faoliyatni tashkil eta olishi zarur hisoblanadi.

Tadqiqotlarda keltirilishicha, ta'lim jarayonini tashkil etish va boshqarish jarayonida o'qituvchilar tomonidan o'ziga xos ahamiyat kasb etuvchi quyidagi vazifalar bajarilishi zarur: belgilangan maqsadga erishish uchun vazifalar belgilash va belgilangan vazifalarni bajarish yo'nalishida tashkil etiladigan faoliyatni oldindan rejalashtirish, amalga oshirish yo'l-yo'riqlarini tanlash, qaror qabul qilish; vazifalarning mazmun va mohiyatiga ko'ra ta'lim oluvchilarni tanlash va bajariladigan vazifalarni taqsimlash; ta'lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etish, zamonaviy axborotlar texnologiyalaridan foydalanish, ta'lim oluvchilarni rahbatlantirish rag'batlantirish asosida innovatsion faoliyatni tashkil etish.

Kompetentlilik pedagogning ma'naviy dunyoqarashi, psixologik-pedagogik va tashkiliy-texnologik salohiyati, ya'ni uning kasbiy imkoniyatlari salohiyatini tasvirlaydi.

O'qituvchi kasbiy kompetentliligining quyidagi asosiy komponentlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- o'z faoliyati va ta'lim muassasasi faoliyati samaradorligini tahlil qilish va obyektiv baholashga xizmat qiluvchi refleksiv ko'nikmalar;

- o'z faoliyati va o'zaro munosabatlar jarayonidagi xatti-harakatlarining natijalarini hamda tarbiyaviy munosabatlar jarayoniga tayyorgarligini his etishni ifodalovchi oldindan ko'rish ko'nikmalari;

- boshqaruv jarayonlarida vujudga kelishi mumkin bo'lgan muammoli vaziyatlarda sub'ektlar faolligini ta'minlash va faoliyatini muvofiqlashtirish ko'nikmasi;

- boshqaruv jarayonlarida mavjud sun'iy to'siq va qarama-qarshiliklar jamoadagi ongli intizomga salbiy ta'sir ko'rsatishining oldini olish ko'nikmasi;

- hamkorlikda faoliyat ko'rsatish va vaziyatlarga ko'ra rahbarlik uslublaridan oqilona foydalanish ko'nikmasi;

- muloqotga oson kirishish ko'nikmasi;

- kommunikativ kompetentlilik, ya'ni turli sharoitlarda insonlar bilan hamkorlikda faoliyat ko'rsatish uchun zarur bo'lgan o'zaro ta'sir ko'rsatish ko'nikmasi;

- axborotlar to'plash, tahlil qilish, ob'ektiv baholash, qayta ishlash va axborotlar almashinish ko'nikmasi;

- o'zini-o'zi boshqarish va shaxsiy rivojlantirish ko'nikmasi va h.k.

“Kompetensiyaga asoslangan yondashuv birinchi o'ringa o'quvchilarning ongliligini emas, balki amaliy faoliyatda yuzaga keladigan muammolarni hal qilish va faoliyat usullarini egallash qobiliyatini qo'yadi. Kompetensiyaga faqat mustaqil ravishda muammolarni qo'yish, ularni hal qilish uchun zarur bo'lgan bilimlarni izlash va tadqiqot orqali aniqlash orqali erishish mumkin. Kerakli kompetensiyalarni shakllantirish yo'li talabning maxsus tashkil etilgan faoliyatidir” [2].

O'qituvchi kasbiy kompetentliligini baholash ko'rsatkichlari sifatida quyidagi ko'rsatkichlarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- Vatanni sevish, ona - yurtiga, ota-onasiga va yoru do'stlariga sadoqatli bo'lish va e'tiqod qilish;

- mustaqil respublikamiz Konstitutsiyasi va qonunlari, davlatimiz ramzlari, milliy urf-odatlar va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;

- ta'limni tashkil qilish to'g'risidagi Nizom va ta'limga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy, me'yoriy-uslubiy hujjatlarni mukammal bilishi va o'z faoliyatida ularga amal qilish malakasiga ega bo'lishi;

- ta'limning demokratik va insonparvarlik tamoyillarini bilishi va ularga amal qilish malakasiga ega bo'lishi;

- o'qituvchiga mos va xos yuksak madaniy saviya va ma'naviy qiyofa usullarini bilishi va egallashi;
- yangi pedagogik texnologiyalar, innovatsion texnologiyalar haqida tasavvurga ega bo'lishi;
- tarbiyaviy ishlarning mazmun-mundariyasi, shakllari va bunday ishlarni tashkil qilish yo'llari va usullari haqida ma'lumotga ega bo'lishi;
- ta'lim muammolari, bu sohadagi izlanishlar, yangilik va yutuqlar haqidagi ma'lumotga ega bo'lishi;
- o'zligini anglash, o'zini va boshqalarni hurmat qilish, o'zini-o'zi boshqara olish va o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi;
- axborotlar to'plash, tahlil qilish, ob'ektiv baholash, qayta ishlash va axborotlar almashinish darajasi;
- ta'lim muassasasini boshqarishda zamonaviy yondashuvlarni tatbiq etishi;
- ta'lim prinsiplari, vositalari va metodlaridan oqilona foydalanishi;
- axborot texnologiyalari va kommunikatsion vositalardan foydalanishi;

Mazkur ko'rsatkichlarga asosan pedagog kasbiy kompetentligini baholash mezonlarini quyidagicha belgilash mumkin.

Pedagogik va psixologik nazariyalarga ko'ra shaxsda namoyon bo'ladigan sifatlar ularning mohiyatiga ko'ra uch guruhga ajratiladi. Ya'ni: 1) ma'naviy-axloqiy sifatlar; 2) irodaviy sifatlar; 3) shaxsiy sifatlar.

Shaxsga xos bo'lgan **ma'naviy-axloqiy sifatlar** sirasida quyidagilarni keltirish mumkin: tartiblilik, mas'uliyatlilik, intizomlilik, mustaqillik, qobiliyatlilik, halollik, mehnatsevarlik, insoniylik, insonga hurmat, mehr-saxovat, xushmuomalalik, muomala madaniyatiga egalik, boshqalarga nisbatan g'amxo'rlik, o'zgalarning g'am-tashvishi, quvonchini tushuna olish, o'z manfaatidan o'zgalarga manfaatlarini ustun qo'yish, ma'lum xatti-harakatlarni amalga oshirishda jamoa a'zolarining fikri bilan o'rtoqlashish, mas'uliyatni his etish va boshqalar.

Irodaviy sifatlar shaxsning ijtimoiy rivojlanish jarayoni bilan bog'liq bo'lib, bu jarayonda shaxs o'zida intiluvchanlik, tirishqoqlik, faollik, qat'iyatlilik, dadillik, jur'atlilik, intizomga qat'iy rioya qilish, kuchlilik, mustaqillik, o'ziga nisbatan talabchanlik, sabr-toqatlilik, chidamlilik, sabotlilik, bardoshlilik, mas'uliyatlilik, o'z kuchiga ishonish, matonatlilik, o'z-o'zini tuta bilish, o'z-o'zini boshqara olish, optimistik kayfiyatga egalik, tashabbuskorlik kabi irodaviy sifatlarni shakllantirib boradi. Shaxsning kamolotga erishib borishi jarayonida unda shaxsiy sifatlar ham tarkib topadi va mustahkamlanadi.

Psixologik yondashuvlarga ko'ra, **shaxsiy sifatlar** kim bo'lishidan qat'iy nazar, barchada namoyon bo'ladi va mohiyatiga ko'ra salbiylik yoki ijobiylikni ifodalaydi.

Masalan, biror-bir shaxs ezgu g'oyalarga asoslangan qadriyatlar tizimi, xarakter, motivlar, muayyan sohaga doir bilimlardan xabardorligi, uslubi, xatti-harakatlari, ma'lum faoliyatni tashkil eta olish malakasiga ega bo'lsa, ikkinchi bir shaxs ularga qarama-qarshi mazmunga ega xislatlarni o'zida namoyon etadi.

“Ustoz shaxsiy xususiyatlaridan tashqari chuqur ilmiy saviyaga, so'zlash madaniyatiga, yuksak odob axloqli bulishi kerak. Shogirdlar bilan o'tkaziladigan suxbatlarni yuqori saviyada tashkil qilishda, ustoz quyidagi madaniyat qirralariga ega bo'lishi kerak.

Ruxiyat madaniyati - shogirdning ma'naviy extiyojlariga to'g'ri ta'sir ko'rsatish.

Mahorat madaniyati - har bir tadbirni zo'r quvonch va qalbdan tashkil qilish.

Siyosiy madaniyat - davr talabiga mos iqtisodiy, ijtimoiy bilimga ega bo'lish.

Ma'naviy madaniyat - shogirdlarning ijodiy, ma'naviy, badiiy faoliyatini tashkil qilish” [3].

Demak, o'qituvchining kasbiy kompetentligi ta'lim jarayonini ilmiy asosda tashkil etish va boshqarish yo'nalishidagi tushunchalari darajasi, tashkilotchilik, tadqiqotchilik, boshqaruvchilik, pedagogik qobiliyati va ko'nikmasi, o'zini-o'zi rivojlantirishga va uzluksiz mustaqil ta'lim olishga bo'lgan moyilligi, intilishlari, shuningdek, zamonaviy talablar asosida ta'lim muassasasi faoliyatini tashkil etish imkoniyatlari orqali aniqlanadi deb aytishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. R.Oripova, M.Dj. Raxmatullaeva. integrallashgan ta'limda texnologiyalar. Pedagogik va psixologik tadqiqotlar. № 2 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4066-2024-2>.
2. R.Oripova. "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal / ISSN 2181-063X. Volume 4 Issue 2 / April 2023
3. Berdiev G., Mamedov Sh. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.-Toshkent: TDAU, 2001.-76 b.
4. A.Nishonov, B.Haydarov, B.Nuridinov, D.Razzoqov va boshq Ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. Trenerlar uchun qo'llanma./ tuzuvchi mualliflar. Toshkent., 2002 yil.